**«Утверждено»**
**Генеральный директор**
**АО «PAYNET»**
**______________**
**А.С. Исамухамедов**

**Приложение № 1**
**к Приказу №___ от_____________**

## ПРАВИЛА ПРОВЕДЕНИЯ АКЦИИ «ZARBA»

*Цель настоящей Акции является продвижение мобильного приложения «PAYNET Mobile», стимулирование активности пользователей мобильного приложения Paynet, ранее не проявлявших высокой платёжной активности, а также привлечение новых пользователей. Акция направлена на поощрение физлиц, совершающих транзакции и иные действия в приложении, не связана с риском для участников и проводится исключительно в целях продвижения сервисов PAYNET и повышения их узнаваемости на рынке.*

г. Ташкент

### Термины и определения

**Акция –** Акция «ZARBA».

**Организатор акции –** АО «PAYNET» (торговая марка PAYNET), осуществляющее деятельность платежной организации в соответствии с Лицензией Центрального Банка Республики Узбекистан № 35 от 08.06.2024 г., предоставляющие посреднические услуги по приёму платежей.

**Пользователь –** дееспособное физическое лицо, использующее мобильное приложение для оплаты товаров и услуг.

**Мобильное приложение «PAYNET MOBILE»** (далее – Мобильное приложение) – программный продукт, предоставляющий возможность осуществления оплаты Пользователем в пользу поставщиков услуг в онлайн

**«PAYNET» AJ**
**Bosh direktori tomonidan**
**“Tasdiqlangan”**
**____________________**
**A.S. Isamuxamedov**

**____sanadagi -sonli buyruqqa №**
**1 - ilova**

## “ZARBA” AKSIYASINI O‘TKAZISH QOIDALARI

*Ushbu Aksiyaning maqsadi “PAYNET Mobile” mobil ilovasini targ‘ib qilish, bundan avval yuqori to‘lov faolligini ko‘rsatmagan Paynet mobil ilovasi foydalanuvchilarining faolligini oshirish, shuningdek, yangi foydalanuvchilarni jalb qilishdan iborat. Aksiya ilovada tranzaksiyalar va boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarni rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, ishtirokchilar uchun xavf tug‘dirmaydi va faqat PAYNET xizmatlarini ilgari surish va ularni bozorda tanilishini oshirish maqsadida o‘tkaziladi*

Toshkent sh.

### Atamalar va ta’riflar

**Aksiya –** “ZARBA” aksiyasi.

**Aksiya tashkilotchisi –** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil 8-iyundagi 35-sonli litsenziyasiga muvofiq to‘lov tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi, to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi “PAYNET” AJ (PAYNET savdo belgisi).

**Foydalanuvchi –** tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishda mobil ilovadan foydalanuvchi muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

**“PAYNET MOBILE” mobil ilovasi** (keyingi o‘rinlarda – Mobil ilova) – foydalanuvchiga bank kartasi, bonus kartasi va boshqa mavjud vositalar yordamida xizmat ko‘rsatuvchilarning foydasiga onlayn rejimda to‘lovlarni amalga oshirish, shuningdek ilova funksionalida

режиме с использованием банковской карты, бонусной карты и других имеющихся инструментов, а также совершать другие действия, предусмотренные функционалом приложения (далее – «Приложение»). Правообладателем мобильного приложения является АО «PAYNET».

nazarda tutilgan boshqa harakatlarni bajarish imkonini beruvchi dasturiy mahsulot (keyingi oʻrinlarda – “Ilova”). Mobil ilovaning huquq egasi “PAYNET” AJ hisoblanadi.

**Идентификация** – процедура подтверждения личности Пользователя в Мобильном приложении в соответствии с законодательством и функционалом Мобильного приложения.

**Identifikatsiya** – Mobil ilovada foydalanuvchining shaxsini amaldagi qonunchilik va Mobil ilovaning funksionaliga muvofiq tasdiqlash jarayoni.

**Участник** – дееспособное физическое лицо, принявшее условия настоящих Правил, и совершающее действия, указанные в Правилах.

**Ishtirokchi** – ushbu Qoidalarning shartlarini qabul qilgan va Qoidalarga muvofiq belgilangan harakatlarni amalga oshirayotgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

**Мячи** – внутренняя условная единица Акции, не являющаяся денежными средствами.

**Toʻplar** – Aksiya doirasidagi ichki shartli birlik boʻlib, pul mablagʻlari hisoblanmaydi.

**Задания** – действия в Мобильном приложении, выполнение которых приносит пользователю Мячи.

**Topshiriqlar –** Mobil ilovada bajarilishi orqali foydalanuvchiga Toʻp beriladigan harakatlar.

**Таблица лидеров** – рейтинг участников акции по количеству набранных мячей. При равенстве мячей выше место занимает тот, кто первым набрал Мячи (до секунды).

**Yetakchilar jadvali** – toʻplagan Toʻplar soniga koʻra Aksiya ishtirokchilari reytingi. Ballar soni teng boʻlgan taqdirda, Toʻplar birinchi boʻlib toʻplagan ishtirokchi (hatto soniya aniqligida) yuqoriroq oʻrinni egallaydi.

**Лидеры месяца** – Пользователи, занявшие первые 10 мест в Таблице лидеров по итогам октября и ноября.

**Oyning yetakchilari** – oktyabr va noyabr yakunlariga koʻra Yetakchilar jadvalida birinchi 10 oʻrinni egallagan foydalanuvchilar.

**Призовой фонд** – совокупность призов по гарантированному обмену, по таблице лидеров и по случайному выбору.

**Sovrin jamgʻarmasi** – kafolatli almashtirish, liderlar jadvali va tasodifiy tanlov boʻyicha beriladigan sovrinlar majmui.

**Викторина** – игровая активность внутри Акции, в ходе которой Пользователь отвечает на вопросы и может получить Мячи.

**Viktorina** – Aksiya ichidagi oʻyin shaklidagi faoliyat boʻlib, foydalanuvchi savollarga javob berib Toʻplar olishi mumkin.

**Платеж** – денежные средства, уплачиваемые Пользователем в пользу Поставщика за услуги (товары, услуги).

**Toʻlov** – foydalanuvchi tomonidan xizmat koʻrsatuvchining foydasiga xizmatlar (tovarlar, xizmatlar) uchun toʻlanadigan pul mablagʻlari.

**Paynet-карта** – электронный кошелек в Мобильном приложении «PAYNET Mobile», микропроцессор (чип), программное обеспечение Системы PAYNET WALLET

**Paynet-karta** – “PAYNET Mobile” ilovasidagi elektron hamyon, mikroprotsessor (chip), PAYNET WALLET tizimining dasturiy taʼminoti yoki elektron pullarni

или иное программно-техническое средство, позволяющее хранить и использовать электронные деньги.

saqlash va ulardan foydalanish imkonini beruvchi boshqa dasturiy-texnik vosita.

## 1. Общие положения

1.1. Настоящие правила проведения акции среди пользователей Мобильного приложения (далее по тексту «Правила») разработаны Организатором и определяют условия, порядок и сроки проведения акции «ZARBA».

1.2. Организатор акции: АО «PAYNET», осуществляющее деятельность платежной организации под торговой маркой «PAYNET» по адресу: 100100 г. Ташкент, Яккасарайский р-н ул. Шота Руставели, 53 Б, (далее – Организатор).

1.3. Объявление о проводимой Акции размещается на сайте, в Мобильном приложении и в социальных сетях.

1.4. Участником Акции становится Пользователь, который принял условия настоящих правил путем проставления галочки в соответствующем интерфейсе Мобильного приложения.

1.5. Обязательным условием для участия в розыгрыше призов, получения статуса победителя, а также обмена Мяче на Гарантированные призы является прохождение Идентификации Участниками.

1.6. Акция работает с версией мобильного приложения 7.2.36 и следующими после неё версиями.

## 1. Umumiy Qoidalar

1.1 Mobil ilova foydalanuvchilari oʻrtasida aksiya oʻtkazishning ushbu qoidalari (bundan keyin matnda "Qoidalar" deb yuritiladi) Tashkilotchi tomonidan ishlab chiqilgan va "ZARBA" aksiyasini oʻtkazish shartlari, tartibi va muddatlarini belgilaydi.

1.2 Aksiya tashkilotchisi: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli koʻchasi, 53 B-uy manzili boʻyicha "PAYNET" savdo belgisi ostida toʻlov tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi "PAYNET" AJ (keyingi oʻrinlarda - Tashkilotchi).

1.3 Oʻtkazilayotgan Aksiya toʻgʻrisidagi e’lon saytda, Mobil ilovada va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtiriladi.

1.4. Mobil ilovaning tegishli interfeysida belgi qoʻyish orqali ushbu qoidalarning shartlarini qabul qilgan Foydalanuvchi Aksiya ishtirokchisiga aylanadi.

1.5 Sovrinlar oʻyinida ishtirok etish, gʻolib maqomini olish, shuningdek, Toʻpni Kafolatlangan sovrinlarga ayirboshlash uchun Ishtirokchilarning identifikatsiyadan oʻtishi majburiy shart hisoblanadi.

1.6 Ushbu aksiya mobil ilovaning 7.2.36 va undan keyingi versiyalari bilan ishlaydi.

## 2. Порядок и условия проведения Акции

2.1 Акция является открытой и проводится в соответствии с настоящими Правилами.

2.2 Период проведения акции с 15.09.2025 г. по 14.12.2025 г. (включительно). Даты проведения розыгрышей установлены соответствующими пунктами настоящих Правил.

## 2. Aksiyani oʻtkazish tartibi va shartlari

2.1 Aksiya ochiq hisoblanadi va ushbu Qoidalarga muvofiq oʻtkaziladi.

2.2 Aksiyani oʻtkazish muddati 2025-yil 15-sentyabrdan 2025-yil 14-dekabrgacha (shu kuni ham). Sovrinli oʻyinlarni oʻtkazish sanalari ushbu Qoidalarning tegishli bandlarida belgilangan.

2.3 Для получения любого вида Приза (гарантированного, денежного или по таблице лидеров) пользователь обязан пройти Идентификацию в Мобильном приложении в порядке, установленном Организатором. Идентификация должна быть завершена до момента проведения розыгрыша и/или подведения промежуточных либо окончательных итогов акции. Пользователи, не завершившие Идентификацию в указанный срок, к участию в розыгрыше призов не допускаются. Организатор не несёт ответственности за невозможность получения приза вследствие непрохождения или несвоевременного прохождения Участниками Идентификации.

2.4 Акция проводится среди Пользователей, которые совершают Задания в Мобильном приложении и участвуют в Викторине.

2.5 К участию в Акции допускаются Пользователи, у которых количество операций по оплате услуг (товаров, работ) в Мобильном приложении за календарный месяц, предшествующий дате начала Акции, составляет менее 100 (ста) операций. Пользователи, превысившие указанный порог, не допускаются.

2.6 За выполнение Заданий и правильные ответы Викторины Пользователь получает Мячи. Количество начисляемых Мячей зависит от вида Задания или Викторины и определяется Организатором. Общее количество Мячей за выполнение Задания не может превышать 161 мяч. Общее количество Мячей за правильные ответы Викторины ограничены количеством вопросов и правильных ответов.

**2.7 Начисление мячей:**

а) бонусный 1 (один) Мяч за принятие настоящих Правил путем проставления галочки;

2.3 Har qanday turdagi Sovrinni (kafolatlangan, pul yoki yetakchilar jadvali boʻyicha) olish uchun foydalanuvchi Tashkilotchi tomonidan belgilangan tartibda Mobil ilovada identifikatsiyadan oʻtishi shart. Identifikatsiya oʻyin oʻtkazilgunga va/yoki aksiyaning oraliq yoki yakuniy natijalari sarhisob qilingunga qadar yakunlanishi kerak. Belgilangan muddatda identifikatsiyani yakunlamagan foydalanuvchilar sovrinli oʻyinida ishtirok eta olmaydi. Tashkilotchi Ishtirokchilarning identifikatsiyadan oʻtmaganligi yoki oʻz vaqtida oʻtmaganligi sababli mukofotni ololmaganligi uchun javobgar emas.

2.4 Aksiya Mobil ilovada Topshiriqlarni bajaruvchi va Viktorinada ishtirok etuvchi Foydalanuvchilar orasida oʻtkaziladi.

2.5 Aksiyada ishtirok etishga Aksiya boshlanishidan oldingi kalendar oy uchun Mobil ilovadagi xizmatlar (tovarlar, ishlar) uchun toʻlov operatsiyalari soni 100 (yuz) dan kam boʻlgan Foydalanuvchilar qoʻyiladi. Koʻrsatilgan chegaradan oshgan foydalanuvchilar ishtirok etmaydi.

2.6 Topshiriqlarni bajarganligi va Viktorinalarning toʻgʻri javoblari uchun Foydalanuvchi Toʻplar oladi. Toʻplar soni Topshiriq yoki Viktorina turiga bogʻliq boʻladi va Tashkilotchi tomonidan belgilanadi. Topshiriqni bajarish uchun jami toʻplar soni 161 tadan oshmasligi lozim. Viktorina toʻgʻri javoblari uchun jami Toʻplar soni savollar va toʻgʻri javoblar soni bilan cheklangan.

**2.7 Toʻplarni hisobga olish:**

a) ushbu Qoidalarni belgi qoʻyish orqali qabul qilganlik uchun bonus 1 (bitta) Toʻp;

б) за автоматическое выполнения заданий, не связанных с транзакционной активностью в Мобильном приложении, которые могут быть выполнены только один раз (например, добавление карты, создание «Моего дома», добавление счета, прохождение идентификации). Указанные Задания отображаются в разделе «Выполненные».

в) за каждый правильный ответ Викторины Пользователю начисляется 1 (один) мяч. Неправильные ответы мячей не приносят. Для одного Пользователю Викторина доступна не более 1 (одного) раза в календарный день;

г) за выполнение Заданий. Перечень Заданий, условия их выполнения и количество мячей за полное выполнение определяются Организатором и публикуются в Мобильном приложении. Мячи начисляются исключительно после полного выполнения Задания; частичное выполнение не засчитывается.

д) 10 бонусных мячей за выполнение всех Заданий.
Мячи нельзя обменять на деньги или приобрести за деньги. Передача мячей между Пользователями невозможна.

**2.8 Условия начисления Мячей за выполнение Заданий.**

2.8.1. Задания, предполагающие совершение оплат, переводов, пополнений и иных операций, засчитываются как выполненные только в отношении действий, совершённых пользователем после его согласия на участие (первого входа) в акцию «ZARBA» в приложении и принятия настоящих Правил путем проставления галочки. Действия, совершённые до момента первого входа, не признаются выполнением Заданий и не влекут начисления Мячей.

b) faqat bir marta bajarilishi mumkin boʻlgan Mobil ilovadagi tranzaksiya faoliyati bilan bogʻliq boʻlmagan topshiriqlarni avtomatik bajarganlik uchun (masalan, kartani qoʻshish, "Mening uyim"ni yaratish, invoysni qoʻshish, identifikatsiyadan oʻtish). Koʻrsatilgan Topshiriqlar "Bajarilgan" boʻlimida koʻrsatiladi.

c) Viktorinaning har bir toʻgʻri javobi uchun Foydalanuvchiga 1 (bitta) toʻp beriladi. Notoʻgʻri javoblar toʻp olib kelmaydi. Bir Foydalanuvchi uchun Viktorinadan bir kalendar kunida koʻpi bilan 1 (bir) marta foydalanish mumkin;

d) Topshiriqlarni bajarganlik uchun. Topshiriqlar roʻyxati, ularni bajarish shartlari va toʻliq bajarilgan toʻplar soni Tashkilotchi tomonidan belgilanadi va Mobil ilovada e’lon qilinadi. Toʻplar faqat Topshiriq toʻliq bajarilgandan keyin beriladi, qisman bajarilganlari hisobga olinmaydi.

e) Barcha Topshiriqlarni bajarganlik uchun 10 ta bonus toʻp.
Toʻplarni pulga almashtirish yoki pulga sotib olish mumkin emas. Foydalanuvchilar orasida toʻp uzatish mumkin emas.

**2.8 Bajarilgan Topshiriqlar uchun toʻplarni hisoblash shartlari.**

2.8.1. Toʻlovlar, oʻtkazmalar, toʻldirishlar va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi topshiriqlar faqat foydalanuvchi ilovadagi “ZARBA” aksiyasida ishtirok etishga (birinchi marta kirishga) rozilik berganidan va ushbu Qoidalarni belgi qoʻyish orqali qabul qilganidan keyin amalga oshirilgan harakatlarga nisbatan bajarilgan deb hisoblanadi. Birinchi marta kirishdan oldin bajarilgan amallar Topshiriqlarni bajargan deb hisoblanmaydi va Toʻplar olish uchun sabab boʻlmaydi.

2.8.2. Не признается выполнением Заданий по оплате услуг (товаров, работ), совершенные через функционал «Оплата по реквизитам».

2.8.2. “Rekvizitlar bo‘yicha to‘lov” funksiyasi orqali amalga oshirilgan xizmatlar (tovarlar, ishlar) uchun to‘lov Topshiriqlarini bajarish deb tan olinmaydi.

2.8.3. В Задании по переводу с карты на карту учитываются только переводы, совершенные на карты других пользователей. Переводы между собственными картами одного Пользователя не признаются выполнением Задания и не влекут начисления Мячей.

2.8.3. Kartadan kartaga o‘tkazish vazifasida faqat boshqa foydalanuvchilarning kartalariga qilingan o‘tkazmalar hisobga olinadi. Bir Foydalanuvchining shaxsiy kartalari o‘rtasidagi o‘tkazmalar Topshiriqning bajarilishi deb tan olinmaydi va To‘plar olinishiga olib kelmaydi.

2.8.4. В Задании по пополнению Paynet-карты учитываются только пополнения с банковских карт и переводы с Paynet-карты на Paynet-карту. Пополнения Paynet-карты через инфокиоск, а также через раздел «Оплата» в приложении, не признаются выполнением Задания и не влекут начисления Мячей.

2.8.4. Paynet-kartani to‘ldirish topshirig‘ida faqat bank kartalaridan to‘ldirishlar va Paynet-kartadan Paynet-kartaga o‘tkazmalar hisobga olinadi. Paynet-kartani infokiosk, shuningdek, ilovadagi “To‘lov” bo‘limi orqali to‘ldirishlar Topshiriqni bajarish deb tan olinmaydi va To‘plar olinishiga olib kelmaydi.

2.8.5. В случае отмены, возврата или аннулирования операции, за которую ранее были начислены Мячи, такие Мячи подлежат списанию.

2.8.5. Ilgari To‘plar hisoblangan operatsiya rad etilgan, qaytarilgan yoki bekor qilingan taqdirda, bunday To‘plar hisobdan chiqariladi.

2.8.6. Организатор вправе изменять перечень и условия Заданий, включая количество Мячей за выполнение определенного Задания, в течение всего срока проведения Акции без предварительного уведомления Участников. Участники/Пользователи должны самостоятельно следить за измененными условиями оферты. При этом Задания, полностью выполненные Пользователем до момента их изменения или исключения, считаются выполненными и Мячи за них сохраняются.

2.8.6. Tashkilotchi Aksiyani o‘tkazishning butun muddati davomida Ishtirokchilarni oldindan xabardor qilmasdan, Topshiriqlar ro‘yxati va shartlarini, shu jumladan muayyan Topshiriqni bajarganlik uchun to‘plar sonini o‘zgartirish huquqiga ega. Ishtirokchilar/Foydalanuvchilar ofertaning o‘zgartirilgan shartlarini mustaqil ravishda kuzatib borishlari kerak. Bunda, Foydalanuvchi tomonidan o‘zgartirilgunga yoki chiqarib tashlangunga qadar to‘liq bajarilgan Topshiriqlar bajarilgan deb hisoblanadi va ular uchun berilgan To‘plar saqlanadi.

2.8.7. Участники, выполнившие все Задания Акции, установленные Организатором, по состоянию на 17:00 14.12.2025, дополнительно получают 10 бонусных мячей в последний день акции.

2.8.9. 14.12.2025-yil soat 17:00 holatiga ko‘ra, Tashkilotchi tomonidan belgilangan barcha Aksiya topshiriqlarini bajargan ishtirokchilar aksiyaning so‘nggi kunida qo‘shimcha ravishda 10 ta bonus to‘piga ega bo‘ladilar.

**2.9. Условия начисления Мячей за правильные ответы Викторины.**

**2.9. Viktorinaning to‘g‘ri javoblari uchun To‘plarni hisoblash shartlari.**

2.9.1. Участие в Викторине является добровольным – Пользователь самостоятельно принимает решение об использовании Мячей. Для участия в Викторине с баланса Пользователя списывается **1 мяч**. Если на балансе менее 1 мяча, участие в Викторине невозможно.

2.9.1. Viktorinada ishtirok etish ixtiyoriydir — Foydalanuvchi To‘plardan foydalanish to‘g‘risida qarorni mustaqil ravishda qabul qiladi. Viktorinada qatnashish uchun Foydalanuvchi balansidan **1 To‘p** yechib olinadi. Agar balansda 1 To‘pdan kam bo‘lsa, Viktorinada ishtirok etishning iloji yo‘q.

2.9.2. Каждая Викторина состоит из 3 (трёх) вопросов. На каждый вопрос предоставляется 30 секунд для выбора ответа. Ответ, не подтверждённый в установленное время, считается неверным. Если пользователь покинул приложение, не подтвердив ответ, соответствующий вопрос считается неверным. Возврат к предыдущим вопросам невозможен. Общее количество вопросов, используемых в акции, заранее не объявляется и не раскрывается участникам. Организатор не берет на себя обязательств ежедневно публиковать вопросы Викторины, периодичность публикации новых вопросов определяется Организатором самостоятельно.

2.9.2. Har bir Viktorina **3 (uch)** savoldan iborat bo‘ladi. Har bir savolga javob variantini tanlash uchun 30 soniya vaqt beriladi. Belgilangan vaqt ichida tasdiqlanmagan javob noto‘g‘ri deb hisoblanadi. Agar foydalanuvchi javobni tasdiqlamay turib ilovani tark etsa, ushbu savol noto‘g‘ri deb hisoblanadi. Oldingi savollarga qaytish mumkin emas. Aksiyada ishlatiladigan umumiy savollar soni avvaldan e’lon qilinmaydi va ishtirokchilarga oshkor qilinmaydi. Tashkilotchi Viktorinadagi savollarni har kuni e’lon qilish majburiyatini olmaydi, yangi savollarni e’lon qilish davriyligi Tashkilotchi tomonidan mustaqil belgilanadi.

2.9.3. Вопросы могут относиться к:

1) истории Лиги чемпионов;

2) событиям матчей текущего сезона Лиги чемпионов 2025–2026 гг.

2.9.3. Savollar quyidagi mavzularga oid bo‘lishi mumkin:

1) Chempionlar Ligasi tarixi;

2) 2025–2026 yilgi Chempionlar Ligasi mavsumi o‘yinlaridagi voqealar.

2.9.4. За каждый правильный ответ на вопрос Викторины начисляется 1 (один) мяч. За неправильные ответы Мячи не начисляются. Викторина доступна не более 1 (одного) раза в календарный день.

2.9.4. Viktorinaning har bir to‘g‘ri javobi uchun 1 (bir) To‘p beriladi. Noto‘g‘ri javoblar uchun To‘plar berilmaydi. Viktorina kuniga 1 (bir) martadan ortiq o‘tkazilmaydi.

2.9.5. Вопросы и ответы формируются и утверждаются исключительно Организатором на основании базы данных, подготовленной с использованием открытых источников (включая официальный сайт УЕФА и энциклопедию «Википедия»).

2.9.5. Savollar va javoblar faqat Tashkilotchi tomonidan shakllantiriladi va tasdiqlanadi. Ular ochiq manbalardan (jumladan UEFA rasmiy sayti va “Vikipediya” ensiklopediyasi) foydalanilgan ma’lumotlar bazasi asosida tayyorlanadi.

Организатор формулирует и утверждает вопросы и варианты

Tashkilotchi savollar va javob variantlarini o‘z ixtiyoriga ko‘ra

ответов по своему усмотрению и не несёт ответственности за их трактовку Участниками, а также за результаты участия в Викторине.

shakllantiradi va tasdiqlaydi hamda ularning Ishtirokchilar tomonidan talqin qilinishi yoki Viktorinada ishtirok natijalari uchun javobgar emas.

В случае возникновения у Участников сомнений, разногласий или альтернативных трактовок правильности вопросов либо ответов окончательным и обязательным для применения признаётся вариант, установленный Организатором.

Agar Ishtirokchilarda savollar yoki javoblarning to‘g‘riligi borasida shubha, kelishmovchilik yoki muqobil talqinlar yuzaga kelsa, Tashkilotchi tomonidan belgilangan variant yakuniy va majburiy deb hisoblanadi.

Указанные разногласия не могут являться основанием для пересмотра результатов викторины, повторного начисления мячей, изменения итогов участия либо предъявления претензий к Организатору.

Mazkur kelishmovchiliklar viktorina natijalarini qayta ko‘rib chiqish, To‘plarni qayta hisoblash, ishtirok natijalarini o‘zgartirish yoki Tashkilotchiga da’vo qo‘yish uchun asos bo‘la olmaydi.

**2.10. Условия использования мячей. Мячи могут быть использованы пользователем для:**

а) участия в Викторине;

б) обмена на гарантированные призы (в пределах установленных лимитов и условий);

в) накопления с целью повышения позиции в Таблице лидеров.

Все неиспользованные мячи аннулируются после окончания Акции – 15.12.2025.

**2.10. To‘plardan foydalanish shartlari. To‘plar foydalanuvchi tomonidan quyidagilar uchun ishlatilishi mumkin:**

a) Viktorina’da ishtirok etish;

b) belgilangan limitlar va shartlar doirasida kafolatlangan sovrinlarga almashtirish;

c) yetakchilar jadvalidagi o‘rnini oshirish maqsadida jamg‘arish.

Aksiyaning yakunlanish sanasi — 15.12.2025 dan so‘ng foydalanilmagan barcha to‘plar bekor qilinadi.

**2.11. Таблица лидеров**

2.11.1. Таблица лидеров формируется на основании общего количества мячей, накопленных пользователями в период проведения Акции. При равенстве количества мячей более высокое место занимает участник, первым достигший данного результата (с точностью до секунды).

2.11.2. В таблице лидеров отображаются следующие данные топ-10 Участников: имя (латиницей), замаскированный номер телефона (первые 5 цифр и последние 2) и

**2.11. Yetakchilar jadvali**

2.11.1. Yetakchilar jadvali Aksiya davomida foydalanuvchilar tomonidan to‘plangan umumiy to‘plar soniga asoslanib shakllantiriladi. To‘plar soni teng bo‘lsa, yuqori o‘rinni birinchi bo‘lib ushbu natijaga erishgan ishtirokchi egallaydi (soniyagacha aniqlik bilan).

2.11.2. Yetakchilar jadvalida yuqori 10 Ishtirokchining quyidagi ma’lumotlari ko‘rsatiladi: ism (lotin harflarida), yashirilgan telefon raqami (birinchi 5 raqam va oxirgi 2 raqam) va to‘plangan

количество накопленных мячей.

to‘plar soni.

2.11.3. В случае, если Пользователь не прошёл Идентификацию, его имя в Таблице лидеров не отображается.

2.11.3. Agar Foydalanuvchi Identifikatsiyadan o‘tmagan bo‘lsa, uning ismi Yetakchilar jadvalida ko‘rsatilmaydi.

**2.12. Порядок фиксации и публикации результатов**

**2.12. Natijalarni qayd etish va e’lon qilish tartibi**

2.12.1 Промежуточные и итоговые результаты Акции подводятся в сроки и порядке, установленном настоящими Правилами.

2.12.1 Aksiya bo‘yicha oraliq va yakuniy natijalar ushbu Qoidalarga muvofiq belgilangan muddatlar va tartibda aniqlanadi.

2.12.2 Результаты Акции, включая имена (латиницей) и замаскированные номера телефонов победителей, публикуются на официальных ресурсах Организатора, включая официальный аккаунт Организатора в социальной сети Instagram.

2.12.2 Aksiya natijalari, jumladan g‘oliblarning ismlari (lotin harflarida) va yashirilgan telefon raqamlari, Tashkilotchining rasmiy resurslarida, jumladan Instagram’dagi rasmiy akkauntida e’lon qilinadi.

2.12.3 Организатор вправе по своему усмотрению корректировать интерфейс отображения прогресса и Таблицы лидеров, не изменяя при этом порядок начисления Мячей и условия определения победителей.

2.12.3 Tashkilotchi o‘z ixtiyoriga ko‘ra Taraqqiyot (progres) interfeysi va Yetakchilar jadvali ko‘rinishini o‘zgartirish huquqiga ega, ammo To‘plar hisoblanishi tartibi va g‘oliblarni aniqlash shartlarini o‘zgartirmaydi.

**3. Призовой фонд. Порядок определения Победителей**

**3. Sovrinlar jamg‘armasi. G‘oliblarni aniqlash tartibi**

3.1. Призовой фонд Акции образуется за счет средств Организатора акции, формируется отдельно до проведения розыгрыша призового фонда и используется исключительно для предоставления призов. Призовой фонд ограничен общим количеством Призов.

3.1. Aksiya sovrin jamg‘armasi Aksiya Tashkilotchisi mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi, sovrinlar jamg‘armasi o‘tkazilishidan oldin alohida tuziladi va faqat sovrinlarni taqdim etish uchun ishlatiladi. Sovrinlar jamg‘armasi umumiy sovrinlar soni bilan cheklangan.

**3.2. Состав призового фонда Акции:**

а) «Лидеры месяца»

б) Гарантированные призы

в) Главные призы – 100 призовых мест в Таблице лидеров

**3.2. Aksiya sovrinlar jamg‘armasi tarkibi:**

a) “Oy Yetakchilari”

b) Kafolatlangan sovrinlar

c) Asosiy sovrinlar – Yetakchilar jadvalidagi 100 sovrinli o‘rinlar

**3.3. Условия получения приза «Лидеры месяца»**

**3.3. “Oy Yetakchilari” sovrinini olish shartlari**

3.3.1 По состоянию на 18:00 31 октября 2025 года и 18:00 30 ноября 2025 года фиксируются результаты

3.3.1 2025-yil 31-oktabr soat 18:00 va 2025-yil 30-noyabr soat 18:00 holatiga Yetakchilar jadvali natijalari qayd

Таблицы лидеров.

3.3.2 Первые 10 (десять) участников Таблицы лидеров, прошедшие Идентификацию в Мобильном приложении в установленном порядке и имеющие наибольшее количество мячей по состоянию на момент подведения итогов, получают денежные призы в следующих размерах:

1 место – 10 000 000 (десять миллионов) сум
2 место – 9 000 000 (девять миллионов) сум
3 место – 8 000 000 (восемь миллионов) сум
4 место – 7 000 000 (семь миллионов) сум
5 место – 6 000 000 (шесть миллионов) сум
6 место – 5 000 000 (пять миллионов) сум
7 место – 4 000 000 (четыре миллиона) сум
8 место – 3 000 000 (три миллиона) сум
9 место – 2 000 000 (два миллиона) сум
10 место – 1 000 000 (один миллион) сум

3.3.3. Денежные призы, указанные в пункте 3.3.2. настоящих Правил зачисляются на Paynet-карты победителей в течение 3 (трёх) рабочих дней с момента определения победителей согласно Таблице лидеров.

3.3.4. Пользователи, занявшие с 11 по 1000 места в Таблице лидеров на соответствующую дату в пункте 3.3.1, участвуют в случайном розыгрыше (рандомайзер), который проводится в прямом эфире официальной страницы Организатора в социальной сети Instagram. В результате розыгрыша определяются 10 победителей, каждому из которых начисляется по 1 000 000 (один миллион) UZS на Paynet-карту в течение 3 (трёх) рабочих дней с момента проведения

etiladi.

3.3.2 Yetakchilar jadvalidagi birinchi 10 (o‘n) ishtirokchi, Mobil ilovada belgilangan tartibda Identifikatsiyadan o‘tgan va yakuniy natijalar e’lon qilingan paytda eng ko‘p to‘plarga ega bo‘lganlar, quyidagi miqdorlarda pul mukofotlari oladi:

1-o‘rin – 10 000 000 (o‘n million) so‘m

2-o‘rin – 9 000 000 (to‘qqiz million) so‘m

3-o‘rin – 8 000 000 (sakkiz million) so‘m

4-o‘rin – 7 000 000 (yetti million) so‘m

5-o‘rin – 6 000 000 (olti million) so‘m

6-o‘rin – 5 000 000 (besh million) so‘m

7-o‘rin – 4 000 000 (to‘rt million) so‘m

8-o‘rin – 3 000 000 (uch million) so‘m

9-o‘rin – 2 000 000 (ikki million) so‘m

10-o‘rin – 1 000 000 (bir million) so‘m

3.3.3. Ushbu Qoidalarning 3.3.2-bandida ko‘rsatilgan pul mukofotlari Yetakchilar jadvali bo‘yicha g‘oliblar aniqlangan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida g‘oliblarning Paynet-kartalariga o‘tkaziladi.

3.3.4. 2025-yil 3.3.1-bandida ko‘rsatilgan sanaga Yetakchilar jadvalida 11 dan 1000-o‘rinlargacha bo‘lgan Foydalanuvchilar tasodifiy tanlovda (randomayzer) ishtirok etadi. Tanlov Tashkilotchining Instagram’dagi rasmiy sahifasida jonli efirda o‘tkaziladi. Tanlov natijasida 10 g‘olib aniqlanadi va har biriga 3 (uch) ish kuni ichida Paynet-karta orqali 1 000 000 (bir million) so‘m taqdim etiladi.

розыгрыша.

3.3.5. Если на момент подведения итогов Пользователь не прошёл Идентификацию, он исключается из числа победителей, а приз передаётся следующему Участнику в порядке убывания количества Мячей. При равенстве количества мячей более высокое место занимает участник, первым набравший соответствующее количество мячей (с точностью до секунды).

**Если победитель не прошёл Идентификацию на момент проведения розыгрыша, он исключается от участия в розыгрыше призов, а приз передаётся следующему участнику, прошедшему Идентификацию.**

3.3.5. Agar yakuniy natijalar e’lon qilingan paytda Foydalanuvchi Identifikatsiyadan oʻtmagan boʻlsa, u gʻoliblar qatoridan chiqariladi va sovrin Toʻplar soni kamayish tartibida keyingi Ishtirokchiga beriladi. Toʻplar soni teng boʻlsa, yuqori oʻrinni birinchi boʻlib ushbu miqdorga erishgan ishtirokchi egallaydi (soniyagacha aniqlik bilan).

**Agar gʻolib tanlov oʻtkazilgan paytda Identifikatsiyadan oʻtmagan boʻlsa, u sovrin tanlovidan chiqariladi va sovrin Identifikatsiyadan oʻtgan keyingi ishtirokchiga beriladi.**

3.3.6. Для целей определения победителей в категории «Лидеры месяца» учитываются исключительно Мячи, полученные Участниками в период, установленный для соответствующего розыгрыша:

- при подведении итогов 31 октября 2025 года учитываются Мячи, заработанные в период с даты начала Акции по 31 октября 2025 года включительно, до 18:00 (в том числе заработанные в сентябре и октябре 2025 года);
- при подведении итогов 30 ноября 2025 года учитываются только Мячи, заработанные в период с 1 по 30 ноября 2025 года до 18:00 включительно;
- декабрь 2025 года не участвует в промежуточных подведениях итогов и учитывается исключительно при определении окончательных результатов Акции.

Мячи, полученные Участниками вне установленных периодов, не учитываются при определении победителей. В частности, при подведении итогов за октябрь учитываются Мячи, заработанные с

3.3.6. “Oy Yetakchilari” kategoriyasida gʻoliblarni aniqlash maqsadida faqat Ishtirokchilar tomonidan tegishli tanlov davrida toʻplangan Toʻplar hisobga olinadi:

- 2025-yil 31-oktabr natijalarini e’lon qilishda Aksiya boshlanish sanasidan 31-oktabr 2025 yil soat 18:00 gacha (shu jumladan 2025 yil sentyabr va oktabr oylarida toʻplangan) Toʻplar hisobga olinadi;
- 2025-yil 30-noyabr natijalarini e’lon qilishda faqat 1-noyabrdan 30-noyabr 2025 yil soat 18:00 gacha toʻplangan Toʻplar hisobga olinadi;
- 2025-yil dekabr oyi oraliq natijalarda hisobga olinmaydi va faqat Aksiya yakuniy natijalarini aniqlashda hisobga olinadi.

Ishtirokchilar tomonidan belgilangan davrlar tashqarisida toʻplangan Toʻplar gʻoliblarni aniqlashda hisobga olinmaydi. Xususan, oktabr oyining yakuniy natijalarida Aksiya boshlanishidan 31-oktabr 2025 yil soat

даты начала Акции по 31 октября 2025 года, до 18:00 включительно; при подведении итогов за ноябрь — только Мячи, заработанные в период с 1 по 30 ноября 2025 года до 18:00 включительно. Фактическое место Участника может отличаться от отображаемого в таблице. Окончательное распределение мест и призов определяется исключительно на основании количества Мячей, заработанных в соответствующем периоде, и фиксируется Организатором на дату подведения итогов.

18:00 gacha toʻplangan Toʻplar, noyabr oyining yakuniy natijalarida esa 1–30 noyabr 2025 yil soat 18:00 gacha toʻplangan Toʻplar hisobga olinadi. Ishtirokchining haqiqiy oʻrni jadvalda koʻrsatilganidan farq qilishi mumkin. Oʻrinlar va sovrinlarning yakuniy taqsimoti faqat tegishli davrda toʻplangan Toʻplar soniga asoslanib Tashkilotchi tomonidan eʼlon qilinadi.

3.3.7. Таблица лидеров в приложении отображает общий объём мячей, накопленных пользователем за весь период Акции. В связи с этим текущее место Участника в Таблице лидеров не является гарантией его места при подведении итогов «Лидеров месяца».

3.3.7. Ilovadagi Yetakchilar jadvali foydalanuvchi Aksiya davomida toʻplagan umumiy Toʻplar miqdorini koʻrsatadi. Shu sababli, Yetakchilar jadvalidagi joriy oʻrin Ishtirokchining “Oy Yetakchilari” yakuniy natijalaridagi oʻrnini kafolatlamaydi.

**3.4. Условия получения Гарантированных призов (обмен на мячи).**

**3.4. Kafolatlangan sovrinlarni olish shartlari (Toʻplar evaziga almashish)**

3.4.1. Участники могут обменять накопленные мячи на Гарантированные призы в Мобильном приложении. Стоимость приза в мячах, лимиты по количеству, условия использования и срок действия определяются Организатором и указываются в карточке каждого приза. Количество каждого вида Гарантированных призов ограничено. Организатор не гарантирует наличие всех призов на протяжении всего периода Акции. В случае исчерпания установленного лимита конкретного приза он становится недоступным для обмена.

3.4.1. Ishtirokchilar Mobil ilovada toʻplangan Toʻplarni Kafolatlangan sovrinlarga almashtirishlari mumkin. Sovrin narxi Toʻplarda, miqdor boʻyicha limitlar, foydalanish shartlari va amal qilish muddati Tashkilotchi tomonidan belgilanadi va har bir sovrin kartasida koʻrsatiladi. Har bir turdagi Kafolatlangan sovrinlar soni cheklangan. Tashkilotchi Aksiya davomida barcha sovrinlar mavjudligini kafolatlamaydi. Belgilangan limit tugagan sovrin almashish uchun mavjud boʻlmaydi.

3.4.2. При обмене мячей на гарантированный приз с баланса Пользователя списывается количество Мячей, соответствующее стоимости выбранного приза. Списание мячей отражается в балансе пользователя и может

3.4.2. Toʻplarni kafolatlangan sovrin evaziga almashtirishda foydalanuvchi balansidan tanlangan sovrin qiymatiga mos keladigan Toʻplar miqdori yechib olinadi. Toʻplarning yechilishi foydalanuvchi balansida aks etadi va Yetakchilar jadvalidagi oʻriniga taʼsir

повлиять на его место в Таблице лидеров.

**Обмен Мячей на Гарантированные призы является окончательным: возврат мячей, отмена обмена или возврат полученного приза не допускаются.**

3.4.3. За один календарный месяц Участник может обменять Мячи максимум на 3 (три) разных приза. За всю Акцию Участник может получить максимум 9 (девять) подарков.

**Если победитель не прошёл Идентификацию, он не может обменять Мячи на Гарантированные призы.**

Дополнительно по каждому виду Гарантированного приза установлены индивидуальные лимиты (в месяц и/или за всю акцию), которые указываются в карточке соответствующего приза. При исчерпании лимитов призов соответствующий приз удаляется из списка и становится недоступным для выбора.

3.4.4. Обмен мячей на Гарантированные призы становится доступен с 1 октября 2025 года.

3.4.5. гарантированных призов, доступных для обмена на Мячи:

1) **Промокод от партнеров.** Обмен возможен за 1 (один), 2 (два) или 3 (три) мяча. Лимиты: до 5 Промокодов на одного Пользователя в течение всего периода Акции. Условия использования Промокодов устанавливаются партнёром и подробно указаны в описании карточки подарка. Пользователь обязуется ознакомиться с условиями до момента приобретения.

2) **5 бесплатных поездок на автобусе по г Ташкент АТТО.** Обмен возможен за 5 (пять) мячей. Лимиты: не более 1 раза в месяц и

qilishi mumkin.

**To‘plarni Kafolatlangan sovrinlarga almashtirish yakuniy hisoblanadi: To‘plarni qaytarish, almashuvni bekor qilish yoki olingan sovrinni qaytarish mumkin emas.**

